

Date: 29th October-2025

**GLOBAL MOLIYAVIY INQIROZLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA
TA'SIRI**

Anvarova Umida

ISFT instituti stajyor-o'qituvchisi



So'nggi o'n yilliklarda global moliya tizimida ro'y berayotgan beqarorliklar, kredit bozorlaridagi keskin tebranishlar va xalqaro investitsiya oqimlarining o'zgaruvchanligi dunyo iqtisodiyotining umumiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2008-yildan keyingi global moliyaviy inqirozlar shuni ko'rsatdiki, hatto mustaqil moliyaviy tizimga ega bo'lgan mamlakatlar ham xalqaro bozorlar o'zgarishlaridan chetda qololmaydi. O'zbekiston ham so'nggi yillarda global iqtisodiy tizimga tobora chuqurroq integratsiyalashgan sari tashqi omillarga nisbatan sezuvchanligi ortib bormoqda.

Moliyaviy inqiroz mohiyatan moliya bozorlaridagi muvozanatsizlik, aktivlar bahosining sun'iy oshishi, kredit resurslarining haddan tashqari ko'payishi va kapital oqimlarining keskin teskari yo'nalish olishi natijasida yuzaga keladi. Bunday jarayonlar avvalo rivojlangan davlatlarda boshlanadi, biroq xalqaro savdo va moliyaviy integratsiya natijasida ularning salbiy ta'siri tezda rivojlanayotgan mamlakatlarga ham o'tadi. O'zbekiston uchun bu ta'sir eksport hajmi, investitsiyalar oqimi, valyuta kursi, bank tizimi likvidligi hamda davlat byudjeti balansida namoyon bo'ladi.

2008-yilda yuz bergan global moliyaviy inqiroz O'zbekiston uchun birinchi jiddiy tashqi sinov bo'ldi. Garchi mamlakat o'sha davrda nisbatan yopiq iqtisodiy modelni saqlab kelgan bo'lsa-da, jahon bozorlaridagi pasayish eksport hajmining qisqarishiga olib keldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2009-yilda tovar eksporti hajmi 13,7 foizga kamaygan, lekin davlatning faol investitsiya siyosati natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishi 8,1 foiz darajasida saqlab qolingani. Shu yillarda O'zbekiston hukumati "2009–2012-yillarda iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish" dasturini amalga oshirdi, natijada ichki talab va bandlikni qo'llab-quvvatlashga muvaffaq bo'lindi.

Keyingi katta sinov 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida yuz berdi. Dunyo bo'ylab iqtisodiy faoliyat to'xtab qoldi, xalqaro savdo hajmi 15 foizga kamaydi, neft narxlari 60 foizgacha pasaydi. O'zbekiston ham bundan chetda qolmadi: 2020-yilda mamlakat iqtisodiy o'sishi 1,6 foizgacha pasaydi, eksport hajmi 13 foizga kamaydi, tashqi investitsiyalar oqimi esa deyarli 25 foizga qisqardi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan tashkil etilgan "Antikrizis jamg'armasi" orqali 10 trillion so'mdan ortiq mablag' sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Bu iqtisodiy inqirozning eng og'ir oqibatlarini yumshatishga xizmat qildi. 2021-yilga kelib o'sish sur'ati yana 7,4 foizga qaytdi, bu O'zbekiston iqtisodiyotining tez tiklana olish salohiyatini isbotladi.


2022–2024-yillar oralig'ida esa dunyo iqtisodiyoti yana yangi bosqichdagi global moliyaviy beqarorlikka duch keldi. Rossiya va Ukraina o'rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlar,

Date: 29th October-2025

energetika narxlarining o'sishi, global inflyatsiya va transport zanjirlarining uzilishi O'zbekiston uchun ham jiddiy iqtisodiy xavflarni yuzaga keltirdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat tashqi qarzi 64,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi (YAIMning 55,7 foizi). 2025-yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 72,2 milliard dollarga yetdi, shundan 36,8 milliard dollar davlat qarzi, 35,4 milliard dollar esa xususiy sektor ulushiga to'g'ri keldi. Shu davrda import hajmi 23 milliard dollarga, eksport esa 16,6 milliard dollarga yetgan, tashqi savdo balansida esa 6,4 milliard dollarlik manfiy farq kuzatildi.

Moliyaviy inqirozlarning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishda Keynes, Fisher va Minsky nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Keynesiy yondashuvga ko'ra, inqiroz davrida iqtisodiyotdagi umumiy talabning pasayishi davlat xarajatlarini ko'paytirish orqali kompensatsiya qilinadi. O'zbekiston tajribasi ham bu nazariyani tasdiqlaydi — davlat investitsiyalari iqtisodiy siklni barqarorlashtirish vositasi sifatida ishlatilgan.

Fisher esa moliyaviy inqirozlarni "qarz deflyatsiyasi" orqali izohlaydi: qarz miqdori ortgan sari, ularning xizmat ko'rsatish xarajatlari ham oshadi va bu butun tizimni beqarorlashtiradi. Bugungi kunda O'zbekiston tashqi qarzining YAIMdagi ulushi ortib borayotgani shuni anglatadiki, uzoq muddatda bu moliyaviy xavf omiliga aylanishi mumkin.



1-rasm. O'zbekistonda 2020-2024-yillar oralig'idagi inflyatsiya darajasi ko'rsatkichlari.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillarda O'zbekistonning o'rtacha yillik inflyatsiyasi 10,8 foizni tashkil etgan, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi esa 14 foiz atrofida bo'lgan. 2024-yilda pul massasining o'sishi 18 foizga yetgan, bu esa fiskal kengayish siyosatining ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank tizimining aktivlari hajmi 600 trillion so'mdan oshgan, tijorat banklari kredit portfeli esa 420 trillion so'mga teng bo'lgan. Ushbu raqamlar iqtisodiyotda likvidlik yetarli ekanini bildiradi, biroq resurslarning samarali taqsimlanishi masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Amaliy jihatdan, global moliyaviy inqirozlar O'zbekiston uchun nafaqat xavf, balki imkoniyat ham yaratmoqda. Xavf tomoni — tashqi qarz yukining oshishi, import qaramligining kuchayishi, inflyatsiyaning yuqori darajada qolishi. Imkoniyat esa — iqtisodiy diversifikatsiya, yangi moliyaviy instrumentlar, raqamli iqtisodiyot va "yashil"



Date: 29th October-2025

moliya yo‘nalishlarini rivojlantirishdir. 2025-yildan boshlab hukumat tomonidan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida barqaror moliyaviy tizimni shakllantirish, davlat qarzini 60 foizdan oshirmaslik, mahalliy kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

Xalqaro tajribaga tayangan holda, inqirozga bardosh beruvchi iqtisodiyot uchta asosiy tayanchga ega bo‘lishi kerak: birinchisi, fiskal zaxira (byudjet jamg‘armalari va oltin-valyuta rezervlari); ikkinchisi, moliyaviy sektorda risk monitoring tizimi; uchinchisi, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish. O‘zbekiston hozirda bu yo‘nalishlarda ijobiy natijalarga erishmoqda: Markaziy bankning oltin-valyuta zaxiralari 2025-yil boshida 36,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu 10 oylik importni qoplash imkonini beradi. Shu bilan birga, 2024-yilda O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 8,1 milliard dollarga yetgan, bu esa ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, global moliyaviy inqirozlar O‘zbekiston iqtisodiyotiga asosan tashqi savdo, investitsiyalar, valyuta kursi va byudjet balanslari orqali ta’sir qiladi. Ammo mamlakat iqtisodiy siyosatining muvozanatli yuritilishi tufayli, bu ta’sirlar nisbatan yumshoq kechmoqda. O‘zbekiston iqtisodiy modeli o‘zida ijtimoiy barqarorlikni, davlat aralashuvini va bozor mexanizmlarini uyg‘unlashtirgan. Shu sababli, mamlakat global moliyaviy beqarorlik davrida ham iqtisodiy o‘lishni saqlab qola olyapti.

Kelgusida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun tashqi qarzni boshqarish, eksport diversifikatsiyasini chuqurlashtirish, raqamli moliya tizimini joriy etish hamda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni jadallashtirish zarur. Ana shunda O‘zbekiston har qanday global moliyaviy inqiroz sharoitida ham o‘z iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi va barqaror rivojlanish yo‘lidan boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari (2017–2024-yillar).
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti — <https://stat.uz>
3. Jahon banki ma’lumotlari — <https://data.worldbank.org>
4. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) hisobotlari — World Economic Outlook, 2009–2024-yillar.
5. “O‘zbekiston iqtisodiyoti: barqaror rivojlanish yo‘lida” — T.: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti, 2023.
6. Tohirov A., Yuldasheva M. Xalqaro moliya tizimi va global inqirozlar – T.: TDIU nashriyoti, 2020.
7. OECD. Economic Outlook: Global Financial Crisis Effects and Recovery. – Paris, 2010.
8. Abduqodirov A. Iqtisodiy xavfsizlik va moliyaviy barqarorlik. – T.: Iqtisodiyot, 2021.
9. UNCTAD. World Investment Report. – Geneva, 2022–2024.

